



International Conference on Adaptive Learning Technologies

International Conference on Adaptive Learning Technologies - is an online world scientific boletin to publish academic research papers from various fields. Conference procedures will be published after peer review by different reputable and top researchers from different scopes.

TABIY FANLARNI BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QITISH JARAYONIDA BIOLOGIC VA GEOGRAFIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH

Qurbonova Shoira Narzullayevna

Buxoro davlat universiteti o`qituvchisi

Isoyeva Madinabonu Alisher qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda tabiat to`g`risidagi bilimlar tarkibiga jonsiz tabiat, jismlar va hodisalar, o`simlik va hayvonlar, odam tanasining tuzilishi va salomatligini muhofaza qilish, yilning har xil fasllarida qishloq xo`jalik mehnati to`g`risida tasavvur va tushunchalar, oddiy geografik tasavvur haqida fukr yuritilgan.

Kalit so`zlar: jonsiz tabiat, jism, hodisalar, o`simlik, hayvonlar, mebel, idish-tavoq, tarnsport, maishiy texnika, ish qurollari, sog`liqni saqlash, shaxsiy gigiena.

Boshlang`ich sinflarda tabiat to`g`risidagi bilimlar tarkibiga jonsiz tabiat, jismlar va hodisalar, o`simlik va hayvonlar, odam tanasining tuzilishi va salomatligini muhofaza qilish, yilning har xil fasllarida qishloq xo`jalik mehnati to`g`risida tasavvur va tushunchalar, oddiy geografik tasavvur hamda tushunchalar kiradi. Bolalar maktabga kelishi bilan o`qituvchi rahbarligida atrof olam bilan maqsadga yo`nalgan holda tanishib boradilar. Atrof olam bilan dastlabki tanishish ularning sezgi organlarining qabul qilishiga asoslanadi. Olamni bilib olishning birinchi bosqichi bolalarning barcha yangiliklarni qarab chiqishga, iloji bo`lsa shunga ko`ra dastlabki tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirishda o`quvchiga o`rganish ob`ekti bilan bevosita muloqatda bo`lish imkoniyatni berishi kerak.

Tabiatdagi mavsumiy o`zgarishlarni kuzatish jarayonida o`quvchilar o`simliklar va hayvonlarning ba`zi turlari, o`simliklar hayoti uchun zarur bo`lgan sharoitlar (masalan, o`simlik o`sishining tashqi sharoitga, ya`ni issiqlik, yorug`lik, namlik, tuproq holatiga bog`liqligi), turli yil fasllarida o`simlik va hayvonlar hayotidagi o`zgarishlar bilan tanishadilar. O`qish jarayonida o`quvchilar yigirmadan ortiq tur tushunchalarni egallaydilar: *mebel, idish-tavoq, tarnsport, maishiy texnika, ish qurollari, o`simliklar, hayvonlar, sog`liqni saqlash, shaxsiy gigiena* va boshqalar.

O`quvchilarning tur tushunchalarini o`rganishda o`zlarining aniq predmetlar va ularning tasvirini guruhlariga ajratish bo`yicha shaxsiy amaliy faoliyatlari katta ahamiyatga ega.

Ekologik ta'lim va tarbiya maqsadidan kelib chiqib, tabiatshunoslik fani o'quvchilarni insonning tabiatga ta'sirini va tabiat boyliklarini bolalarga tushuntirish vazifasini o'z oldiga qo'yadi.

Atrofdagi olam predmeti va ob'ektlari haqida shakllangan tasavvurlarini o'quvchilar o'quv mashg'ulotlari, didaktik va ijodiy o'yinlar, o'z-o'ziga xizmat qilish va ijtimoiy foydali mehnat qilish jarayonida amaliy mustahkamlaydilar. Shu tarzda atrofdagi olam bilan tanishish bo'yicha materiallarni o'rganishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ularning har tomonlama etuk shaxs bo'lib rivojlanishi maqsadida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalalar hal qilinadi.

Tabiatshunoslik tushunchalarini samarali o'zlashtirishni ta'minlovchi metodik sharoitlar.

O'quv materiallarini o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirmaslik hollari ham kam emas. Buning sababi, shundaki, ularning bilimlari, tasavvurlar darajasida qolgan. Bu darsda yoki bir mavzu bo'yicha shakllantirilgan tushunchalar keyinchalik rivojlantirilmaydi va boshqa tushunchalar bilan bog'lanmaydi. Tushunchalarni rivojlantirishning zarur sharoit sistemasidir. Jumladan tabiatshunoslik tushunchalarining hosil bo'lishi muayan metodik sharoitlarda amalga oshadi.

Chunonchi tabiiy ob'ektni kuzatishlar, qabul qilishni aniqlovchi mashqlar; o'qituvchining hayajonli hikoyasi qabul qilishning to'g'ri bo'lishini ta'minlaydi. O'qituvchining savollari, xotiradan rasm chizish, har xil narsalarni tanib olish bo'yicha mashqlar tasavvurlarning to'g'ri bo'lishiga yordam beradi. Muammoning aniq qo'yilishi, o'qituvchi tomonidan o'quv materialini bayon qilish mantiqi, aniqlash va taqqoslash bo'yicha mashqlar tushunchalarni bog'lovchi va rivojlantiruvchi takrorlash sistemasini, umumlashtirishni talab qiluvchi savollar tushunchalarning to'g'ri bo'lishini ta'minlaydi.

Tabiatshunoslik tushunchalari bevosita qabul qilish – kuzatishlarga asoslanib, o'rganilayotgan narsa yoki hodisa to'g'risida aniq va ravshan tasavvur hosil qilingan sharoitda to'g'ri bo'lishi mumkin. Tushunchani birlamchi tarzda hosil bo'lishda ob'ektlar va ko'rgazmali materiallarning har xil turlari (jadvallar, sxemalar, suratlar va h.k.) katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni tafakkurini rivojlantirmasdan, ularni fikrlash, ishga jalb qilmasdan turib tushunchalarni o'zlashtirishga erishish mumkin emas. O'qituvchilarning fikrlash faoliyatini rag'batlashtirish uchun o'qituvchi mavzu va dars boshida ular oldiga muammolar qo'yadi. O'quv materiallarini bayon qila borib, u o'qituvchilarni sabab va oqibatlarini, tabiat hodisalri o'rtasidagi bog'lanishlarini aniqlashga jalb qilish uchun harakat qiladi.

Tabiatshunoslik tushunchalarini o'zlashtirishda predmetlararo (nutqni rivojlantirish, o'qish, matematika, ona tili, musiqa, ashula, texnik mehnat, rasm olish bilan) aloqa o'rnatilishi muhim ahamiyatga ega.

Predmetlararo aloqadan sistemali ravishda foydalanish bolalarni ilgari olingan bilimlarni qo'llashiga, o'quv faoliyatlarining barcha turlarida mantiqiy bog'lanish o'rnatishga o'rgatadi.

O'quvchilarni faol fikrlashlarini tarbiyalashda o'qituvchining savollari katta rol o'ynaydi. Quyidagi savollar misol bo'lishi mumkin: cho'lda yashovchi hayvonlarning qaysi moslanishlari ularga qurg'oqchilikka va jazirama issiqqa chidashga yordam beradi? Nima uchun tundrada katta daraxtlar o'smaydi? Dasht va cho'l tabiatining o'xshashligi nimada? va h.k.

Tushunchalarni rivojlantiruvchi savollar sistemasini jadvalda, sxemalar yordamida berilsa yanada yaxshi bo'ladi. Mantiqiy tafakkur va nutqni rivojlantirish:

Tabiatshunoslik tasavvurlari va tushunchalarini shakllantirishda tafakkur va nutq katta rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarni nutqining to'g'ri bo'lishini kuzatib borishi

kerak. Nutqni shakllantirish uchun eng muhim materiallaridan biri o'quvchi atrofidagi tabiatdir. Atrof tabiat bilan tanishtirish bolalarning kuzatishlariga asoslanadi.

Kuzatishlar jarayonida o'quvchilar narsalarning belgilarini payqashga o'rganadilar.

O'qituvchi mavzularga moslab har xil savollar tuzib mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun o'quvchilar bilan mashqlar o'tkazish mumkin.

Narsalarni taqqoslashga o'rgatish uchun savollar tuzish ular bir xil shakldagi belgilardan iborat bo'lishi ularning fikrlab farqlarini tanish.

Taqqoslash – bu narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovut belgilarini aniqlash demakdir. Taqqoslash – aqlning tahliliy ishdir. Hozirgi vaqtda o'quvchilarning idrok qilish faoliyatlarini va ularning bilimlarini tekshirish maqsadida tabiatshunoslik darslarida har bir o'quvchining o'qishdagi mustaqilligi va o'quv axborotlarini qabul qilishi hamda qayta ishlashlarini tashkil qilishga yordam beruvchi dasturlashtirilgan o'qitish qo'llaniladi. Dasturlashtirilgan o'qitish bilimlarni egallashdagi harakatlarni jkuzatib borishga, qaysi bo'g'inda uzilish borligini aniqlashga, o'qitish jarayoniga qanday o'zgartirishlar kerakligini aniqlashga imkon beradi.

Boshlang'ich sinflarda dasturlashgan o'qitishning qo'llanishi mumkin bo'lgan variantlarini ko'rib chiqamiz:

1. Tezis tipdagi kartochka–topshiriqlar, muayyan nomerlangan kartochkada tabiatshunoslik ob'ektlarining (o'simlik, hayvon va hakovolarning) nomlari keltiriladi. O'quvchilar javoblarida kerakli o'simlik yoki belgining nomini yozmaydilar, faqat tegishli raqamni bayon qiladilar.

2. Raqamli dasturlashtirilgan topshiriqlar. Raqamli topshiriqlarda ish individual kartochkalar yoki maxsmus tayyorlangan devoriy jadval bo'yicha olib boriladi. Kartochkada topshiriq ko'rsatmada va javoblarga kalit beriladi. O'quvchi kerakli kalitni topish lozim. Bunday ishni bajarish natijasida o'qituvchi 4-5 minut ichida endigina o'rganilgan materialni mustahkamlash maqsadida ham, uy vazifasini tekshirishda ham o'quvchilar bilimni sinash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Masalan, tabiiy xarita bo'yicha bilimlarni (4-sinf) aniqlovchi topshiriqlar tuzish mumkin.

Topshiriq:

1. Daryoning boshlanish joyi.

2. Daryo oqimi chuqurligi.

3. Daryoning boshqa daryoga, ko'lga, dengizga quyiladigan joyi.

4. Panj va Vaxsh daryolarining qo'shilishidan hosil bo'lgan daryo.

5. Qora daryo Norin darayolarning qshilishidan hosil bo'lgan daryo.

6. Quyiladigan joyiga ega bo'lmagan daryo.

Kalit. 1. Amudaryo, 2. Sirdaryo, 3. O'zani, 4. Boshlanishini, 5. Zarafshon, 6. Quyiladigan joyi.

Javoblar: 1(4), 2(3), 3(6), 4(1), 5(2), 6(5).

Dasturlashrilgan didaktik kartochkalar. Bunday dasturlashtirilgan topshiriqlardan har xil tipdagi darslar o'tishda, shuningdek, o'quvchilar bilan individual va frontal ishlar olib borish jarayonida foydalanish mumkin. Topshiriqni bajarishga 5 minut ajratiladi. Bu vaqt ichida o'quvchi 2-3 ta kartochkaga javob berishi va javoblarni raqamlar bilan ko'rsatishi lozim.

Dasturli kartochkalar o'rganilgan mavzularning variantlari bo'yicha tuziladi. Kartochkada savol-topshiriq va unga uchta: to'liq va to'g'ri, noaniq, noto'g'ri javoblar beriladi. O'quvchi daftariga kartochka nomeri va qavs ichida javob nomerini yozishi kerak.

Kartochka №1.

Nima uchun qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadilar?

- 1.Chunki sovuq bo‘lib qoladi.
- 2.Ular yeydigan ovqat yo‘q.
- 3.Chunki sovuq bo‘lib qoladi va ochlik vujudga keladi.

Javob: (3)

Bundan tashqari tabiatshunoslik fanini o‘rganishda kuzatish, ekskursiya, tajriba, amaliy ishlar ham yetakchi o‘rin tutadi. Bolalarni kuzatish usullariga o‘rgatish, ularning natijalarini kundalik daftarga belgilash, ular asosida xulosa va umumlashmalar qilishga ularni bilimlarini oshishga yordam beradi. Ekskursiyalar o‘tkazish, tabiat hodisalari va voqelikni tabiiy holatga o‘rganishga yordam beradi. Shuning uchun tabiatshunoslik darslarini o‘tkazishga alohida e’tibor berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mukhamadovna, T. M., Djamshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2023). Art as a significant factor of forming world outlook of students.
2. Qurbonova, S. N., & METODLARDAN, A. F. T. D. I. FOYDALANISH//Scientific progress.– 2021. T, 2(6), 1030-1035.
3. Kurbanova, S. (2021). TEXNOLOGIYA DARSİ JARAYONIDA TALABALARNING MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 3(3).
4. Kurbanova, S. (2020). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ ТУРЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ: ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ ТУРЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
5. Kurbanova, S. (2021). Barkamol avlodni shakillanishida talim jarayonini orni va unda zamonaviy oqitish texnologiyalaridan foydalanish yollari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
6. Kurbanova, S. (2020). TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN STUDENTS IN PRIMARY SCHOOL. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
7. Курбанова, Ш. Н. (2020). Преподавание математики в начальных классах. In European reseach: innovation in science, education and technology (pp. 97-100).
8. Qurbonova, S. N., & Abdullayeva, F. TARBIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH.
9. Narzullaevna, K. S., & Nilufar, T. (2021). Methodology for conducting technology lessons on working with paper and cardboard. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 588-596.
10. Narzullaevna, K. S. (2021). The Role of Educational Process in the Formation of a Harmoniously Developed Generation and Methods of using Modern Teaching Technologies. International Journal of Human Computing Studies, 4(1), 25-28.
11. Narzullaevna, K. S., & Nilufar, T. (2021). Methodology for conducting technology lessons on working with paper and cardboard. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 588-596.
12. Курбанова, Ш. Н., Абдуллаева, Ф., & Очилова, Г. О. (2021). Педагогическая технология–целостная система образовательного процесса. новые педагогические исследования: сборник статей IV, 20.
13. Kurbanova, S. N., & qizi Razzoqova, N. B. (2022). BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONINING O'RNI VA UNDA ZAMONAVIY

O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(10), 84-88.

14. Kurbanova, S. (2020). BOŞLANƒIÇ SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA ƒƒQUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI ŞAKLLANTIRIŞ. Қурбонова Шоира Нарзуллаевна. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1). Yunus, Y., &

Yarashov, M. (2023). Effectiveness of experimental work aimed at forming general labor skills in students based on gender equality and differences. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 420, p. 06011). EDP Sciences.

15. Kurbanova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIGA INTENSIV TA'LIMNI TASHKIL ETISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27(27).

16. Khamroev, A. (2021). Quality and effectiveness for design of learning outcomes in the language teaching. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 549-558.

17. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. *Eastern European Scientific Journal*, (1).

18. Jobir o'g'li, Y. M., & Roziyabonu, S. (2022). 1-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 132-137.

19. YARASHOV, M. (2022). Characteristics of International Integration of Sciences in Primary Schools. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 23(23).

20. YARASHOV, M. (2023). The Place of Digital Technologies in the Education System. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).

21. Jobirovich, Y. M. (2022). TOOLS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATIONAL COURSES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 2(4), 119-123.

22. Hamroyev, A. (2022). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH ZAMONAVIY TA'LIM KONSEPSIYASINING ASOSI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 35-37.